

JAHON MAMLAKATLARIDA QIYOSIY PEDAGOGIK IZLANISHLARNING ILMIY NAZARIY MANBALARI

Xudoyorova Kamolaxon Ismoil qizi

Termiz iqtisodiyot va svervis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3 – kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon mamlakatlarida qiyosiy pedagogika fanining shakillanishi rivojlanish bosqichlari va uning ilmiy nazariy manbalari tahlil etiladi. SHuningdek rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida ta'lim tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash ularning O'zbekiston ta'lim amalyotiga tatbiq etish imkoniyatlari yaratiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro ta'lim tizimi, pedagogik tahlil UNESCO, UNICEF, PISA ,TIMSS, metodologik asoslar,

Kirish:

Xalqaro ta'lim tizimi bir xil emas balki har bir mamlakatning o'ziga xos modeliga ega bo'lgan o'quvchilarga shaxsiy rivojlanish fanlarni tanlash erkinligi kasbga yo'naltirish kabi imkoniyatlarni beradi. Jahonning yuksak rivojlangan davlatlarida ta'lim tarbiya ishlarini yo'lga qo'yilishi maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yanada rivojlantiradi .Turli davlatlarning ta'lim siyosati ,o'quv jarayonini tashkil etish tajribasi ,o'qitish modellari va boshqaruv mexanizimlari o'rtasidagi farqlar zamonaviy qiyosiy pedagogikaning mohyatini yanada kengaytirib , uni mustaqil ilmiy – metodologik soha sifatida shakillantiradi. Shu bois , bugungi kunda qiyosiy pedagogik izlanishlar nafaqat ta'lim tizimlarini taqqoslash , balki ularning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash , umumiy qonuniyatlari aniqlash , ilg'or tajribalarni milliy ta'lim jarayoniga moslashtirishning eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi .

Bugungi kunda ta'lim tizim tizimlarini qiyosiy o'rganish faqatgina umumiy ma'lumotlarni taqqoslash bilan cheklanmaydi ; aksincha ,har bir mamlakatning ijtimoiy –

iqtisodiy rivojlanish bosqichi , madaniy omillar , ta'lim mafkurasi , boshqaruv tamoillari va pedagogik jarayoning psixologik xususiyatlarni tahlil qilishni talab etadi .shu sababli , qiyosiy pedagogikaning ilmiy – nazariy manbalarni chuqur ochib beriladi , ularning zamonaviy ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotdagi o'rni tahlil qilinadi hamda bugungi ta'lim globallashuvi sharoitda ularning ahamiyati yoritiladi .

Asosiy qism :

Zamonaviy ta'lim jarayonida qiyosiy pedagogikaning o'rni tobora ortib borayotganining yana bir muhim omili – bu ta'lim sifatini baholashning global standartlarga o'tishdir . Bugungi kunda PISA , TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini o'lchabgina qolmay , balki mamlakatlarning ta'lim siyosatini , o'quv dasturlari , o'qtish metodlari va pedagogik muhit samaradorligini ilmiy tahlil qilish uchun asosiy manbaga aylanmoqda . Bu jarayon qiyosiy pedagogik izlanishlarning metodologiyasini yanglab ta'limni baholashda faktlarga asoslagan talab etadi . Masalan P.Burdyo ,U .Bek ,G. Delors kabi olimlar ta'limni global rivojlanish jarayoning strategik omili sifatida ko'rib ta'lim tizimlarining iqtisodiy ma'daniy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini asoslab bergan .Bundan tashqari , qiyosiy pedagogik izlanishlarning nazariy manbalari o'quv jarayonini tashkil etishning universal va milliy modellari o'rtasidagi farqlarni ochib berishga yordam beradi . Masalan Filandiya ta'limning ishonch asosidagi modeli Yaponiya ta'limning intizom va mehnat madaniyati bilan bog'liq konsepsiyasi , Janubiy Koreaning raqamli ta'lim strategiyasi yoki AQSHning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tizimi – har bir mustaqil pedagogik nazariyasi va siyosatga ega . Qiyosiy pedagogik nazariya va siyosatiga ega . UNESCOning asosiy maqsadi ta'limni rivojlantirish madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish, ilm-fan taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash va insoniyat tinchligini mustahkamlash. UNESCO dunyo ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan eng yirik xalqaro tashkilotlardan biridir. Uning ta'limga bo'gan bog'liqligi quyidagi yo'lanishlarda namoyon bo'ladi. Global ta'lim standartlarini belgilaydi, ta'lim tizimlarini baholaydi va tahlil qiladi, maktablar va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlaydi, raqamli ta'limni rivojlantiradi, madaniy meros va ta'lim bog'liqligi , ta'lim ijtimoiy tenglikni targ'ib qiladi yani UNESCO inklyuziv ta'limni

,gender tengligi, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi qo'llab- quvvatlaydi. PISA bu 15 yoshli o'quvchilarni o'qish, matematika, tabiiy fan bo'yicha bilim darajalarini xalqaro miqyosda baholash dasturi hisoblanadi. PISA dasturi 2000 yildan beri o'tkazib kelinadi bu baholash dasturi har uch yilda o'tkaziladi va 80dan ortiq davlatlar ishtirok etadi. PISA dasturi dunyo ta'lim sifatini o'lchaydigon eng nufuzli xalqaro baholash tizimi bo'lib o'quvchilarning real hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini aniqlaydi. TIMSS bu har 4yilda bir marta o'tkaziladi 4-sinf va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fan bo'yicha bilim darajasini baholovchi yirik xalqaro dastur. Birinchi marta 1995 yilda o'tkazilgan va hozirgacha muntazam davom etmoqda. TIMSSning asosiy maqsadi matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatini va samaradorligini solishtirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro mezonda baholash. TIMSS natijalari orqali mamlakatlar o'z o'quv dasturlaridagi kuchli jihatlarini, kamchiliklarini ,qaysi mavzular yaxshi o'zlashtirilganini, qaysi yo'nalishlarda orqada qolayotganini aniqlaydi.

UNICEF BMTning bolalar xuquqlarini himoya qilish ularning sog'lig'i va ta'lim faravonligi ta'minlashga qaratilgan xalqaro tashkilotidir 1946 tashkil etilgan 190 dan ortiq mamlakatlarda foalyat yuritadi . Asosiy maqsadi har bir bolaning yashash , rivojlanish himoya va ta'lim olish huquqlarini ta'minlash .UNICEFning asosiy vazifalari bolalar sog'ligi va ovqatlanishini yaxshilash maktabgacha umumiy va inklyuziv ta'limni qo'lab-quvvatlash nogronligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qlish qashshoqlikni kamaytirish va oilalarga ijtimoiy yordam berish , bolalar xavfsizligi va zo'ravonlikdan himoyalash . Tashkilotning ta'lim jarayoniga bog'liqligi barcha bolalar uchun ta'limga kirish imkoniyatini kengaytirish orqali nomoyon bo'ladi. UNICEF ning ta'limga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirishdir.